

## Maqsuda NORBOSHEVA

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dots.v.b.  
psixologiya f.b.f.d., PhD

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida va umuman, inson va uning kamolotida Alisher Navoiyning axloqiy qarashlaridan foydalanishning ahamiyati masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, axloqiy qarashlar, inson, kamolot, ta'lim-tarbiya, bolalar, maktabgacha yosh, fazilat, ahamiyat.

**Абстрактный:** В статье рассматриваются идеи великого мыслителя Алишера Навои по вопросам нравственности и морали и роль его наследия в воспитании и формировании детей дошкольного возраста и личности в целом.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, нравственные взгляды, человек, зрелость, воспитание, дети, дошкольный возраст, добродетель, значимость

**Abstract:** The article is devoted to the description of ideas of the great thinker Alisher Navoi on morality and the role of his heritage in the education and formation of the children of pre-school age and personality in whole.

**Keywords:** Alisher Navoi, moral views, man, maturity, upbringing, children, preschool age, virtue, significance.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha ijobjiy islohotlar Vatanimizning yuksalishi, jahon hamjamiyatida munosib o'rinn egallashi uchun olib borilmoqda. Yoshlarni yuksak bilimli, e'tiqodli, ma'naviy jihatdan pok insonlar qilib tarbiyalash, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etish, mas'ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilishning afzalligini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, ma'naviy, axloqiy, estetik dunyoqarashini shakllantirishning asosiy bosqichi hisoblanadi.

Shuningdek, Respublikamizda ta'limni insonparvarlashtirish, bolalar shaxsini to'laqonli tushunish, uni hurmatlash, bolalarga ishonish va ularni ishontirish, qiziqishi va qobiliyatini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish bilan birga ularning insoniy sifatlarini shakllantirishni talab etadi. Ya'ni bolada shaxsning insoniyligi, mehroqibat, odob-axlok, aql-idrok, rostgo'ylik, rahm-shafqatlilik, do'stlik-birodarlik, o'z yurtini[5], Vatanini, xalqini sevish kabi fazilatlarni tarbiyalash, ayni paytda ularni dadil, botir, qo'rmas shijoatli, tadbirkor, uddaburon, har bir narsani qadrlay oladigan, milliy, umuminsoniy qadriyatni tushunib yetadigan qilib tarbiyalash zarurdir. Shu sababdan ham Respublikamizda bugungi kunda yosh avlod, tarbiyasida zamonaqiy omillarga tayanish ayniqsa, milliy iftixor tuyg'usining asosiy tarixiy negizi bo'lgan milliy qadriyatlar, ananalar, buyuk allomalar, ota-bobolarimizning manaviy meroslariga asoslanishga ahamiyat berish hozirgi kunning talabidir. Ta'lim muassasalari va oilada tarbiyaga oid insoniyat yaratgan boy ma'naviy meros bo'lgan urf-odatlar, qadriyatlarimizga katta hurmat, etibor bilan qarash, yosh avlod tarbiyasida ulardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir[6]. Zero, har bir tarbiyachi-pedagog buyuk ajdodlarimiz bo'lgan Abu Nasr Forobi, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Yugnakiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk bobolarimizning axloq-odob haqidagi fikrlari, o'gitlarini maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'rgatish, "Til va Nutq", San'at", "Fan va tabiat", "Syujetli va rolli o'yinlar" markazlaridagi mashg'ulotlarda va turli bayram tadbirlar mobaynida ularning she'rlari, o'git, pand-nasihatlaridan foydalanishi talab etiladi[7].

Jamiyatda inson omili har doim hal qiluvchi o'rinn egallagani tufayli buyuk olim va mutafakkirlar ijodida, pand-nasihatlarida insonni tarbiyalash, komil inson bo'lish g'oyasi asosiy g'oya sifatida ifoda etilgan, ahloq-odob me'yori hisoblangan.



Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ulug' shoir, olim va davlat arbobi bo'lish bilan birga turk, fors, arab tillarini mukammal bilgan, odob, aqlzakovat va zehnda ulug' bo'lganlar. Temuriylar davrida yashab ijod etganlar[8]. A.Navoiy o'zining "Xamsa" asariga kirgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Xayrat -ul-abror", "Saba'i Sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarida "Xazoyinul maoniy" "Mahbub-ul qulub" kabi asarlarida, g'azal va ruboilyarida ta'lim-tarbiya haqida nodir fikrlar aytganlar. Navoiy asarlaridagi talim-tarbiya g'oyasining negizi inson va uning kamolotini ifoda etishdan iborat bo'lib, ularda insoniy fazilatlar: insonparvarlik, odamiylik, do'stlik, birodarlik, o'zaro yordamlashish, mehr-oqibatl, xayr-ehsonli bo'lish haqida, odob-axoqli, insof-diyonatli bo'lish, sabr-toqat, qanoat, kamtarlik haqida chuqur falsafiy fikr yuritiladi. Alisher Navoiy o'zining "Farkod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarida oila, qarindosh va birodarlar orasidagi do'stlikni, ayniqsa, xalqlar, millatlar o'rtaqidagi do'stlikni madh etadi, do'stlik xalqning buyuk fazilati deb biladi, uni Farkod, Shirin, Shopur obrazlarida ifoda etadi. Adib xalqni o'yamagan, uning g'amini yemagan, xalqqa yomonlik qilgan kishilarni eng yomon kishi sifatida quyidagi misrada tariflaydi[9].

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni,  
Fe'l ichra ulug' baloyi joni bil oni,  
Olam elining yomon, yomoni bil oni.

Shuningdek, bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlarida ilmli bo'lish, ilmga intilishni yuksak fazilat ekanligini, ilmni osonlikcha egallash mumkin emasligini, ilmli bo'lish uchun tinmay harakat qilish, ilmli kishilardan so'rab o'rganish zarurligini ifoda etadi, ilm qancha ko'p bo'lsa, shunga foydali, deb ta'kidlaydi.

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,  
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.  
Oz-oz o'rganib dono bo'lur,  
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Alisher Navoiy Farhodning ko'p ilmlarni egallagani uchun ham u aql-zakovatli, kamtar, mehnatsevar va hunarli bo'lib yetishganini, o'z ilmi va hunarini xalq manfaati, baxt-saodati uchun sarf qilganini yoshlarga ibrat sifatida tasvirlaydi:  
Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,  
Bilib taxsiqini kasb etmagan ilm.  
Hunarni asrabon netkumdir oxir,  
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir.

Alisher Navoiy asarlarida ilmli bo'lish uchun ona tilini puxta bilish lozimligi, shu bilan birga ko'p tillarni bilish ham muhim ekanligini ilmli kishilar faqat hunar va ilmda emas, balki axloq-odobda ham olilianob bo'lishlari, ular to'g'ri so'z, so'zamol bo'lib hamisha o'z nutqi va o'zgalar nutqiga etiborli bo'lishlarini, chin so'zli ekanliklarini ifoda etadilar. "Tilga e'tibor, elga e'tibor" degan xulosa qilinadi[11]. A.Navoiy quyidagi fikrlari orqali rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ifoda etadi: "Kishining so'zi to'g'ri bo'lsa, uning o'zi ham to'g'ri bo'ladi", deyish bila yolg'on gapirishni, so'zlashda xato qilishni qoralaydi". Chunki "Chin so'z- mo'tabar, yaxshi so'z- muxtasar"dir [1:69-70].

Alisher Navoiy insonga yaxshilik qilishni ulug'lab, shirinsuxanlik, shirin so'z bo'lish ham, yaxshi so'z aytish ham boshqalarga yaxshilik qilish ekanligini aytib, agar sen biror kishiga yaxshilik qilishga hyech narsa topolmasang, yaxshi so'z aytib uning ko'nglini ravshan qilgil deb nasihat qiladi:

"Xushgo'ykim, so'zni rifq va muvaso bilan aytgay, ko'ngulga yuz g'am kelaturg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytgay. So'zdadir har yaxshilikning imkonibor", deyish bilan xushso'z bo'lish, nutqda ortiqcha dag'allik qilmaslik noo'rin so'z qo'llamaslikni, fikrni aniq bayon qilishni targ'ib qiladi.

Yaxshi so'z birla xojat ahlini so'r,  
Bermasang yaxshi to'madin nafaqa.

Ne uchun kim Rasul qavli bilan Yaxshi so'z bordir aylakim sadaqa.[2:70]

Alisher Navoiy ijodida farzand tarbiyasini muhim o'rin egallaydi, ota-onasi o'z farzandining tarbiyasiga mas'ul bo'lishi, farzandlarini odobli, axloqli, aqlli, ilmli qilib tarbiyalashlarini, bolalarning esa ota-onasi oldidagi burchlarini, ota-onasi hurmat qila bilishlarini, ota-onasi ezozlash, hurmatlash, ular xizmatini doim bajo keltirishlari zarurligini ta'kidlaydi, uning fikricha:



Onalarning oyog‘i ostindadir, ravzai jannatu jinon bog‘i[12].

Ravza bog‘i visolini istar ersang, bo‘l anoning oyog‘in tuprog‘i. [3:70]

Quyidagi misralarda Navoiy farzandga ota-onani bir xil hurmat qilishni, ularni e’zozlashni targ‘ib qiladi:

Biri erur makrumati validayi,

Bilki, buning o‘qilmog‘idir farzi

Ista ota yo‘lida fido jon qilmoq,

Qulluq onoga ham unga imkon qilmoq,

Zuhri abad istasang farovon qilmoq,

Bil oni ota-onoga exson qilmoq. [4:76-77]

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, buyuk ajdodlarimizning ta‘lim-tarbiyaga doir fikrlari, o‘gitlarini maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan boshlab o‘rgatish, bolalar nutq va muloqotini o‘stirish bilan birga ularni odob-axloqli etib tarbiyalashga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR:

1. A.Navoiy "Maxbub-ul qulub" Pedagogika tarixidan xrestomatiya. -Toshkent: 1993, 69-70-b.
2. A.Navoiy. Arbain. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: O.Xasanboyeva -T.: 1993, 70-b.
3. A.Navoiy. Pedagogika tarixidan xrestomatiya . 1993, 70-b.
4. A.Navoiy. Xayratul-abror. -T.: 1989, 76-77-b.
5. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. *Наука и образование сегодня*, (7 (66)), 66-67.
6. Норбошева, М. А., & Норбошева, М. А. (2018). Реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. In *Фундаментальные и прикладные исследования: гипотезы, проблемы, результаты* (pp. 25-29).
7. Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулодотнинг ўрни. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 9(3), 7.
8. Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(4).
9. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 297-303.
10. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТИЛАННИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 11(3).
11. Norbosheva, M. (2020). Issues of moral perfection and spiritual height in the poem of “Kutadgu Bilig” by Yusuf Has Hadjib. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 2020.
12. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. *O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*, 219.